



YER KADASTRI MA'LUMOTLARINI TAHLIL QILISHNING STATISTIK USULLARI

Islomova Habiba Abdurahmon qizi

Qarshi davlat texnika universiteti YKvaYT 419-24- guruh talabasi

Annotatsiya: Maqolamning mazmuni shundan iboratki, yer kadastri ma'lumotlarini tahlil qilishning statistik usullari, iqtisodiy tarmoqlari, statistik ma'lumotlarni to'plash haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Yer kadastri iqtisodiyot tarmoqlari, yer kadastri ma'lumotlarini tahlil qilishning statistik usullari.

Yer kadastri iqtisodiyot tarmoqlari hisobining tarkibiy qismi bo'lgani holda yer maydonlarining huquqiy, tabiiy hamda xo'jalik holatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish, qayta ishlash va tahlil qilishning statistik usullariga asoslanadi. Ma'lum bir tadqiqot ob'yektini o'rganish uchun birlamchi ma'lumotlar olishga statistik kuzatuv deyiladi. Statistik kuzatuvning asosiy mohiyati ijtimoiy xayotdagi voqeyliklar va jarayonlar to'g'risidagi turli tuman ma'lumotlarni rejali tarzda ilmiy tashkil etilgan holda yoilashdan iborat. Masalan, yerlarni iqtisodiy jihatdan baholash uchun yerlardan foydalanish harakterini tahlil qilishda yerlarni yerdan foydalanuvchilar o'rtasidagi taqsimoti, yer turlarini tarkibi, tuproq bonitirovkasi materiallari, ekin maydonlari, hosildorlik, sof daromad, yalpi mahsulot miqdorlari, sarflangan moddiy va mehnat resurslari to'g'risidagi ma'lumotlar to'planadi, qayta ishlanadi va shu asosda baholash ishi o'tkaziladi.

Statistik kuzatuvlar tadqiqotning asosiy zvenosi hisoblanadi. Ular u yoki bu voqeylik uchun birlamchi ma'lumotlar beradi. Shu sababli tabiiyki, statistik ma'lumotlarni tahlil qilish natijasida qilinadigan xulosalarning asosiligi kuzatuv natijasida olinadigan ma'lumotlarning to'raligiga va sifatiga bog'liqdir. Chunonchi, aniq va qatt'iy ishonchli holda ma'lumotlarni to'plash statistik kuzatuvlarning zaruriy shart bo'ladi. Statistik kuzatuvlar ma'lum bir reja asosida o'tkaziladi. Bu rejada kuzatuvlarning shakllari, turlari va usullari, shuningdek kuzatuvlarni amalga oshirish bo'yicha tashkiliy tadbirlar qayd qilinadi. Statistik kuzatuvlarning asosiy shakllari - bu hisobot va ro'yxatga olishdiiif (perepis). Hisobot - bu shunday kuzatuv shakliki, bunda statistik organlar, ma'lum muddatlar bo'yicha, korxona, muassasa va tashkilotlardan qonuniy belgilangan hujjat ko'rinishidagi zaruriy materiallarni oladi. Hisobot shakllari va ularni tekshirish muddatlari respublika markaziy statistika boshqarmasi (MSB) tomonidan belgilanadi. Olinadigan ma'lumotlarning ahamiyati va zarurligiga qarab hisobotlar turli muddatli bo'ladi: oylik, kvartal,



yarim yillik va yillik. Yer kadastrida asosan yillik hisobotlar keng tarqalgan. Korxona, muassasa va tashkilotlar rahbarlari o'z egaligi yoki foydalanishidagi yerlar tarkibida ro'y bergan o'zgarishlarni hisobga olganlarida holda har yili yer maydonlarining holati to'g'risida hisobot topshiradilar. Davlat yer tuzish organlari har yili qishloq xo'jalik yerlarini sug'oriladigan va quriladigan yerlar, yer turlari, va yerdan foydalanuvchilarning bo'yicha taqsimlanishi to'g'risida, hamda besh yilda bir marta - yerlarni yerni toifalari, yer turlari, yer egaliklari, yerdan foydalanuvchilar, yer mulkdorlarini yerlarning sifat holati va bahosi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zida jamlagan holda hisobotlar topshiradilar. Bu hisobotlarda yerlarning meliorativ holati va yerdan foydalanish to'g'risidagi ma'lumotlar ham beriladi.

Ammo hisobotlar turli xilda bo'lishlariga qaramasdan ular bir qator masalalar bo'yicha zaruriy materiallar bermaydi. Bir qancha ko'rsatkichlar bo'yicha hisobotlar umuman tuzilmaydi. Shuning uchun ham maxsus statistik kuzatuvlar o'tkazish zaruriyati tug'iladi. Bu - ro'yxatga olishdir. Ro'yxatga olish deb, shunday kuzatuv tushuniladiki, bunda statistik organlar aniq muddatgaj maxsus tashkil etilgan kuzatuv yo'li bilan materiallar to'playdilar. Respublikamizda davriy ravishda ko'p yillik mevali daraxtlarni, meliorativ inshootlarni ro'yxatga olish, yo'qlama qilish (inventarizatsiya) ko'rinishida sug'oriladigan yerlarni ro'yxatga olish ishlari bajariladi. Ro'yxatga olish hisobotida bo'lmagan ma'lumotlarni to'ldiradi, hisobot ma'lumotlarini kengaytiradi, shuningdek ularning ishonchliligini tekshiradi. Statistik kuzatuvlar o'tkazilish muddatlari bo'yicha ikki turga bo'linadi: tanaffuzsiz, yoki joriy va tanaffusli. Joriy kuzatuvda ob'ektni holatidagi o'zgarishlar tizimli tarzda qayd qilib boriladi. Shuning uchun ham unga tanaffussiz deyiladi. Yer kadastrida joriy kuzatuvlarga yer uchastkalariga bolgan huquqlarni ro'yxatga olib borish, qishloq xonadonlarining dehqon xo'jaliklari yerlarini kuzatish kabilar kiradi. Yer uchastkalariga bolgan huquqlarda, dehqon xo'jaligi yerlarida yuz berib turadigan o'zgarishlar doimiy ravishda matn va plankartografik hujjatlarda qayd qilib boriladi.

Tanaffusli kuzatuvlar odatda davriy va bir vaqtning o'zidagi kuzatuvlarga bolinadi. Davriy kuzatuvlar aniq, qat'iy belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi. Bunga masalan, yer baholash ishlari kiritish mumkin, negaki tuproq bonitirovkasini o'tkazish va shu asosida yerlarni iqtisodiy baholash xar 5 yilda amalga oshiriladi. Bir vaqtning o'zidagi kuzatuvlar belgilangan vaqtga yoki maxsus topshiriq bo'yicha voqeylikni o'rganish maqsadida o'tkaziladi. Bu kuzatuvlar doimiy bolmasada, zamriyatga qarab amalga oshiriladi. Bunga masalan, sug'oriladigan yerlarni, ko'p yillik daraxtzorlarni yo'qlama qilish, tuproq meliorativ va geobotanik kuzatuvlar, eskirib qolgan plan-kartografik materiallarni yangilash maqsadida tasvirga olish



ishlarini o'tkazish va hakoza kiradi. Malumki, statistik kuzatuvlar yordamida olingan yer kadastr malumotlari katta miqdordagi turli-tuman malumotlarni o'z ichiga oladi. Ushbu malumotlar yordamida asosli xulosalar qilish uchun bunday alohida malumotlarni malum bir tartibga solish zarur.

Statistik malumotlar to'plash (svodka) - bu statistik kuzatuv natijasida olingan, o'rganilayotgan holat to'g'risidagi malumotlarni belgilangan tartibdagi birlashuvdir. Statistika malumotlarining oddiy to'plami - bu tadqiq qilinayotgan belgining oddiy jamlanmasidir. Masalan, tuman bo'yicha qishloq xo'jalik yerlarining umumiy maydonini olish uchun ushbu malumotlarni barcha yer egaliklari va yerdan foydalanuvchilar bo'yicha bitta jadvalga to'plash va jamini hisoblash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Yer kadastr" A.R. Bobojonov, D.M. Kamolova, S.B. Ro'ziboyev. 51-52-bet.
2. Davlat kadastr asoslar. Yarmatova D. S, 67-68-bet.
3. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. 1998.(2011-yil1-martgacha bo'lgan o'zgartirish va qo'shimcha bilan) – T.: "Adolat", 2011.- 152 bet.
4. 2. Avezbayev S.A., Volkov S.N. YER tuzishni loyihalash / Darslik. T.: Yangi asr avlodi, 2006. - 445 bet.
5. 3. Mirzaabdullayeva M. R. Muqumov A. M. Hamidov F. R.Uzakova G.Sh. Yer huquqi/darslik-T:2020.